



OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Muallif: Kiyamov Nishon Sadikovich¹

Affiliatsiya: Samarqand davlat universiteti professori, p.f.d. (DSc)¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14506204>

ANNOTATSIYA

Oliy ta’lim tashkilotlarida bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirish masalalari, shu jumladan, pedagogik mahorat tushunchasi, unga berilgan ta’riflar hamda uning mazmun mohichiyati xususida gap boradi.

Kalit so’zlar: pedagogika, mahorat, ta’lim, o’qitish, o’qituvchi, bo’lajak o’qituvchi, takomillashtirish, faoliyat, kasbiy tarbiya.

Pedagogik maqsad o’qitish, tarbiyalash asosida ma’naviy barkamol shahsni shakllantirishni, usul tarbiyalanuvchilar obro’siga, hurmatiga sazovor bo’lishni, pedagogik mehnat ob’ektisifatida - O’qituvchining shahsi (harakteri, irodasi, hulq-odobi, tafakkuri va h.k.) Sub’ekt sifatida tarbiyalanuvchilarga ta’sir ko’rsatishni nazarda tutadi. o’qituvchi o’qituvchilarni borliq bilan tanishatirar ekan, ularga tabiat-jamiyat va tafakkur taraqqiyoti qonuniylatlari haqida tushuncha berar ekan, awalo mana shu jarayonlarini o’z faoliyatining ob’ektiga aylantiradi. Darhaqiqat, pedagogik faoliyat- bu o’qituvchining o’quvchilarga ta’lim va tarbiya berish, vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta’sir ko’rsatish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional aktivligidir. O’qituvchi mazkur faoliyat jarayonida o’qitadi, yo’l-yo`riqlar ko’rsatadi, tarbiyalaydi, o’quv-tarbiya ishlarini tashkil qiladi, Prezident, hukumat farmoyishlarini targ’ibot qiladi, o’z malakasini oshirishchun mustaqil bilim olishni rejalashtiradi, oqibat natijada o’zi ham kamol topadi, o’quvchilarni ham kamol toptiradi.

Faoliyat - atrofdagi olamga nisbatan insonning o’ziga hos aktiv munosabati shakli. odamnimaqсадga muvofiq va qayta o’zgartirish faoliyatning mazmunini tashkil etadi. Har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat. Har qanday faoliyat singari o’qituvchilik faoliyati ham maqsad, usul, vosita, ob’ekt va sub’ekt majmuasidir. Qayd qilib o’tilganlar bevosita va bilvosita pedagogik mahoratni shakllantirish uchun vosita bo’lib hizmat qiladi. Pedagogik faoliyat aniq ko’rinishda bo’lsa o’qituvchi o’qitish, tarbiyalash va shahsiy sifatlarni rivojlantirish vazifalarini aniq hal etishga harakat qiladi. Mazkur jarayonda faoliyat aqliy-ruhiy jihatdan ta’sir ko’rsatish, natjalarni nazorat qilish, tahlil qilish va baholash hamda yangi vazifalarni belgilash uchun tayyorlanish bilan chegaralanadi. Bilimlarni o’zlashtirish natijasida o’quvchi shahsining shakllanishi va rivojlanishi ta’minlanadi. Oqibat-natijada jamiyat talabi va vazifalari bajariladi. Bunday jarayonni tashkil qilish uchun o’qituvchi o’z oldiga turgan jamiyat talabiga molik bo’lgan

vazifalarni anglashi, vaziyatni tushunishi, har bir o'quvchining o'zlashtirish jarayonini rivojlantirib, shahs darajasiga kO'tarilish mezonlarini aniq ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lmos'hadi darkor. Bu o'qituvchidan katta tajriba va bilim talab etadi. Buning uchun mahorat zarurdir. Pedagogik mahoratni egallagan o'qituvchi ko'p mehnat va kuch sarflab, yahshi natijalarga erishadi. Yangilikka intilish, ijodkorlik doimo uning hamkor bo'ladi.

Umuman olganda, hozirgi zamon pedagogikasi hamkorlik pedagogikasi bo`lib, u o`quv yurtidagi tarbiyaviy munosabatlarning insonparvarlashuvi va demokratlashuviga yo'naltirilgan. Bunda o`quvchilar faolligini oshirish, ularni pedagogik jarayonning ishtiroychisiga, o`qituvchining esa uning mehribon ustoziga aylantirish muhimdir. Zero, O`zbekiston Respublikasining "Ta'llim to'g'risida"gi qonunda ta'kidlanganidek, ta'llim jarayonining demokrat-lashtirish va insonparvarlashtirish, mamlakatimiz ta'llim tizimini tashkil etishning asosiy printsiplaridan biridir.

Oliy o'quv yurtlarida ixtisos tayyorlash tizimida «Pedagogik mahorat» kursini o'qitish maqsadga muvofiq bo`lib qoldi. «Pedagogika nazariyasi», «Maktabda tarbiyaviy ishlar metodikasi», «Fanlarni o'qitish uslubiyati», «Pedagogika tarixi» va «Pedagogik amaliyot» bilan bir katorda «Pedagogik mahorat asoslari»ni o'qitish ham bulgusi mutaxassislarni tayyorlashda, o'qituvchining malakasini oshirishda Milliy dasturning vazifalaridan biridir.

«Pedagogik mahorat» kursi o'qituvchilarni ilmiy – metodik va amaliy jixatdan tayyorlashni maksad qilib kuyadi. Uning asosiy yunalishlari : pedagogik ijodkorlik, pedagogik topkirlilik, pedagogik muloqot, o'qituvchining professional sifatlari, o'qituvchi nutqi, uning o'quvchiga Har tomonlama ta'sir etish mahorati, pedagogik texnika hamda o'qituvchining tarbiyachilik mahoratidan iborat. O'qituvchi faoliyati o'z xususiyatiga kura ijodiy yunalishga ega. Shunga kura ham yuqorida sanab kursatilgan yunalishlardan tashkari, o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir etish yo`llari, usullari, lektorlik san'ati va mahorati kabi masalalarini ham o'z ichiga oladi.

Amaliy darslarda esa o'qituvchi nutqi va fikrlash madaniyati, o'quvchiga pedagogik ta'sir etish usullari, tarbiyachining tashkilotchilik mahorati kabi masalalar urganiladi. Laboratoriya darslarida dikkat, xayolni mustaxkamlash uchun ayrim mashklar bajariladi. Laboratoriya va mustakil ish kismida pedagogik masalalar to'ziladi va uni-uni yechish yo`llari urganiladi. Pedagogik vaziyat xosil qilinadi va bu vaziyatdan chikib ketish imkoniyatlari izlanadi. Yuqoridasanabkursatilganamaliyishlaro'qituvchiningo'quvchilarbilanmuomalakabilis hmalakasinitarbiyalaydi. «Pedagogikmahorat» kursiningamaliydarslaridanbirkismimaktablarda, litseylarda, kasb – xunarkollejlaridatashkilqilinadivaolgannazariybilmalarinimustaxkamlaydi.

Pedagogikmahorat-bu o'qituvchi-tarbiyachining shunday shahsiy (bolajonligi, hayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy, (bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan hususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psihologik va metodik tayyorgarligida, –

O'quvchi-yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab-topib_amaliy faoliyatida_qo'llashida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psihologiya, metodika fanlarini o'zlashtirishi hamda insoniylik va fidoiylikni

o'zida tarkib toptirishga intlishi lozim. Shuni alohida qayd qilib o'tmoq zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va qiyindir. Ushbukasbningqiyinvamurakkabligishubilanbelgilanadiki, u doimotirik, ongijonzotbilanmuloqotdabo'ladi. Onglivatirkjonzotesa ham aqliy, ham ruhiy, ham jismoniyjihatdandoimorivojlanishdabo'ladi.

Shuninguchuno'quvchibilandoimomuloqotdabo'lish, ungata'sirko'rsatish, undanpsihologiya, tarbiyanazariyasinimukammalbilishnitaqozoqiladi. Bu o'qituvchidanpedagogik-psihologiktayyorgarlikkaegabolo'lishlozimliginita'kidlaydi

Bu fahm-farosat va bilimlarning chinakam ilmiyligi, tarbiyatagi qiyinchiliklarining engishga qodir bo'lgan nufo'zli rahbarlik bolalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan bola shahsiga mohirlik bilan avaylab yondahish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, hayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat mujassamdir.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik tehnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab ko'prok natijalarga erihish imkonini beradi.

Har bir mohir pedagogning shunday zarur bo'lgan umumiyy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, mazkur masalalarni hal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch-g'ayratni, qat'iyatni, tirishqoklikni, tadqiqotlarni olib borishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi kollektivga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql-idrokni bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko`rish malakasini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools.

R.A.Mavlonova, O.To'rayeva, K.M.Xoliqberdiyev, Pedagogika. Darslik T.: O'qituvchi 2018 yil.

R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil

K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quvqo'llanma. T.: O'qituvchi 2010-yil

R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Noshir 2009-yil